

**OMON MUXTOR ROMANLARIDA KONFLIKTNING POSTMODERNISTIK MODELI****Sharifov Siroj Zarif o'g'li****Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti, (PhD)****sharifovsiroj3 @ gmail.com****Tel.: +99893 999-77-24****Olimov Tursunboy Hamroqul o'g'li****Urgut tumani 116-umumta'lim maktabi o'qituvchisi****olimovtursunboy@mail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.19640394>**

Omon Muxtor romanlarida konflikt an'anaviy ijtimoiy yoki psixologik qarama-qarshilik shaklida emas, balki postmodernistik tafakkurga xos bo'lgan nomarkaziylik, ko'p ovozlilik va diskurslar to'qnashuvi orqali yuzaga chiqadi. Qahramonlar faol harakat subyekti sifatida emas, balki o'zligini anglashda ikkilanayotgan, barqaror identitetga ega bo'lmagan ong tashuvchilari sifatida tasvirlanadi. Natijada konflikt tashqi muhit bilan kurash ko'rinishida emas, balki ichki parchalanish, ishonchsiz xotira va ma'no siljishlari orqali badiiy ifodasini topgan deyish mumkin. Mazkur faslda adib romanlaridagi konflikt postmodernistik model asosida tahlil qilinib, uning dekonstruktiv tabiatiga e'tibor qaratiladi. Ya'ni konflikt an'anaviy qarama-qarshiliklar tizimi sifatida emas, balki o'zaro zid ma'nolar, beqaror identitet va ochiq badiiy holatlarni yuzaga keltiruvchi estetik mexanizm sifatida talqin etiladi. Shu orqali adib ijodida konflikt tushunchasining yangicha badiiy-falsafiy mazmun kasb etgani ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Omon Muxtorning "To'rt tomon qibla" trilogiyasi oladigan bo'lsak, bu zamonaviy o'zbek romanchiligida postmodernistik tafakkurga xos konflikt modelining eng murakkab va mukammal namunalaridan biri deyish mumkin. Ushbu trilogiya tarkibiga kiruvchi "Ming bir qiyofa", "Ko'zgu oldidagi odam" va "Tepalikdagi xaroba" romanlari an'anaviy sujetga asoslangan qarama-qarshilikdan voz kechib, konfliktning ong, xotira va identitetning ichki parchalanishi darajasida talqin qiladi. Natijada konflikt tashqi to'qnashuv emas, balki subyektning o'zi ichida kechayotgan ko'p qatlamli ziddiyat sifatida namoyon bo'ladi.

"Ming bir qiyofa" romanida konflikt markazida shaxsning o'zini tanish va o'zligini anglash muammosi turadi. Asar qahramoni hisoblangan Abdulla Hakim obrazi bir butun "men" sifatida emas, balki ko'plab niqoblar, rollar va ijtimoiy qiyofalar yig'indisi sifatida tasvirlanadi. Roman davomida qahramonning har bir qiyofasi o'zicha haqiqatni da'vo qiladi, ammo bu haqiqatlar bir-birini inkor etadi. Shu jihatdan, asarda konflikt yaxshilik-yomonlik yoki qahramon-jamiyat qarama-qarshiligi shaklida emas, balki "men"ning o'ziga qarshi chiqishi tarzida dekonstruksiya qilinadi. Roman matnida ham qahramon o'zini anglash jarayonidagi xatti-harakatlarini o'ziga savol tarzida: *"Men kimman? Qaysi qiyofa mening asl yuzim? Balki, ularning hech biri men emasdir..."*<sup>[1]</sup> satrlari bilan izohlashga harakat qiladi. Misrlik adabiyotshunos, postmodernizm konsepsiyasini nazariyotchilaridan biri Ihab Hassan ta'kidlaganidek, *"postmodern asarlarda qahramon xarakteri barqaror holatda bo'lmay, u doimo o'zini inkor etib, yangidan qurishga harakat qiladi"*<sup>[2]</sup>. "Ming bir qiyofa" romanida aynan shu holat konfliktning asosiy manbai bo'lib xizmat qilganini ko'rishimiz mumkin.

"Ko'zgu oldidagi odam" romanida ham konflikt subyekt va uning aks-sadosi o'rtasidagi murakkab munosabatlar orqali ifodalanib keladi. Ko'zgu obrazi bu yerda oddiy bir predmet emas, balki o'zlikni parchalovchi ramziy detall sifatida ishlatiladi. Asar badiiy qahramoni hisoblangan Valijon ko'zguga qarar ekan, u yerda o'zini emas, balki o'zidan begonalashgan bir timsolni ko'radi: *"Ko'zgu oldida turgan odam menga o'xshardi, lekin u men emas edim..."* Valijon obrazining

shunday va shunga o'xshash xatti-harakatlaridan xulosa qilish mumkinki, bu asarda konflikt haqiqat va tasavvur, mavjudlik va aks o'rtasidagi ziddiyat shaklida namoyon bo'ladi.

Asardagi ko'zgu bilan bog'liq holatlar postmodernistik estetikada muhim bo'lgan simulyatsiya tushunchasini yodga soladi. Fransuz faylasufi Jan Baudrillard fikricha, "zamonaviy dunyoda aks haqiqatdan ustun keladi". Omon Muxtorning bu romani ana shu g'oyani badiiy shaklda ifodalagan deyish mumkin: qahramon real hayotdan ko'ra ko'zgidagi timsol bilan ko'proq to'qnashadi. Shu tariqa konflikt tashqi to'qnashuv emas, balki ong ichidagi akslar urushi sifatida kechadi.

"Tepalikdagi xaroba" romanida esa tarix va xotira konfliktining postmodern talqiniga guvoh bo'lamiz. Bu romanda konflikt tarixiy makon orqali ochiladi. Xaroba obrazi bu yerda o'tmishning vayron bo'lgan shakli bo'lib, u tarixning barqaror haqiqat sifatida inkor etilishini anglatadi. Qahramon xarobaga qarab, unda aniq voqealarni emas, balki parchalangan xotiralar bo'laklarini ko'radi: *"Bu xaroba tarix emas edi, balki unutilgan xotiralarning sukunati edi..."* Bu asarda konflikt tarix va xotira, real voqelik va subyektiv talqin o'rtasida yuzaga kelgan. Kanadalik professor, tanqidchi o'zining "Postmodernizm poetikasi: Tarix, Nazariya, Fiktsiya" kitobida postmodernistik romanlardagi tarixiy syujetlar haqida gapirar ekan: *"postmodern romanlarda tarix muqaddas haqiqat emas, balki qayta yoziladigan matndir"*, - deb ta'kidlaydi. Shu jihatdan qaraganda "Tepalikdagi xaroba" romanida ham tarix konflikt manbai sifatida emas, balki konfliktni inkor qiluvchi, uni parchalovchi omil sifatida talqin qilinganiga amin bo'lamiz.

Umuman olganda, Omon Muxtor romanlarida konflikt:

- ochiq dramatik to'qnashuvdan voz kechadi;
- diskurs, ramz, sukut va ichki monologlar orqali ifodalanadi;
- shaxs, hokimiyat, haqiqat va identitet muammolarini markazga chiqaradi.

Adib ijodida konfliktning bunday postmodernistik talqini o'zbek romanchiligida yangi estetik bosqichni boshlab berganini ko'rsatadi. Omon Muxtor romanlari konfliktni voqeaviy hodisa emas, balki inson tafakkurining ichki muammosi sifatida talqin qilish orqali zamonaviy adabiyot nazariyasi va amaliyotini boyitgan muhim badiiy tajriba sifatida baholanadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Омон Мухтор. Тўрт томон қибла: уч романдан иборат Шарқ дафтари: (трилогия). – Тошкент: Шарқ, 2000 – Б. 45. (Keyingi o'rinlarda ushbu asarning faqat sahifalari ko'rsatiladi.)
2. Hassan I. The Dismemberment of Orpheus: Toward a Postmodern Literature. Oxford University Press (1971; repr. Univ. of Wisconsin Press, 1982)